

TIL – XALQ MADANIYATI KO’ZGUSI**Reimbayeva Mehrbon Quvondiq qizi****Nizomiy nomidagi TDPUning Boshlang’ich ta’lim****Fakulteti, Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498823>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada har bir xalqning o’z ona tili borligi va bu til mana shu xalq ko’zgusi ekanligi, o’z ona tilini har bir xalq asrashi va qadrlashi, uni sof tutgan holda avlodlarga yetkazishi hamda bizning o’z ona tilimiz haqida qabul qilingan qarorlar va til haqida bir nechta chet el olimlarining fikrlari keltirilib o’tildi va tilning xalq hayotida tutgan o’rni masalalari ko’rib chiqildi.

Kalit so’zlar: Til, millat, xalq, madaniyat, madaniyat ko’zgusi, dunyoqarash, o’zlik, Davlat, qonun, tarixiy an’ana, qadriyat.

Abstract: This article discusses the fact that every nation has its own native language and that this language is a reflection of that nation. The preservation and appreciation of its native language by every nation, its preservation and preservation of its purity, and the decisions made about our native language and the opinions of several foreign scholars about language were presented, and the issues of the role of language in the life of the nation were considered.

Keywords: Language, nation, people, culture, cultural mirror, worldview, identity, State, law, historical tradition, value.

Аннотация: В данной статье у каждого народа есть свой родной язык и этот язык является отражением этого народа. Каждый народ должен беречь и ценить свой родной язык, хранить его в чистоте и передавать поколениям, были представлены решения, принятые в отношении нашего родного языка, мнения ряда иностранных ученых о языке и роль языка в жизни. людей обсуждались вопросы.

Ключевые слова: Язык, нация, народ, культура, зеркало культуры, мировоззрение, идентичность, Государство, право, историческая традиция, ценность.

Har bitta xalqning, millatning o’z tili, dini, milliy qadriyatlari va an’analari mavjuddir. Ularning barchasi qaysidir til orqali muloqot qilishadi. Shunga ko’ra til butun bir insoniyatning asosiy aloqa vositasi ekanligi barchamizga ma’lumdir. U orqali millatning asl o’zligi avloddan-avlodlarga yetkazib boriladi. Til aloqa vositasi bo’lishi bilan bir qatorda millatning tarixi va dunyoqarashlarining ham aksidir. Shunday ekan til butun bir xalqning tarixiy an’analalarini, ularning urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalaydi desak ham bo’ladi. Til vositasida odatda qo’shiqlar, ertaklar maqollar orqali urf-odatlar hamda madaniyatlar saqlanib qolib avloddan-avlodga ko’chib kelgan. Til bilan bir qatorda madaniyat ham shakllanib, rivojlanib boradi. Tilning qay darajada boyligi bu o’sha xalq madaniyatining ham qanchalik boyligini ifodalashdir. Aytaylik bizning o’z tilimiz, o’zligimiz bo’lgan o’zbek tilidagi milliy taomlar, urf-odatlar, liboslar, qadriyat hamda an’analar ham xilma-xildir. Bular bizning faxrimiz va o’zligimizni anglatuvchi belgilar deb bemalol ayta olamiz.

Til xalq ijtimoiylashuvida juda ham muhim ahamiyatga ega. Hattoki “YuNESKO tomonidan 21-fevral – Xalqaro ona tili kuni deb ham e’lon qilingan. Buning sababi bo’lsa 1952-yil 21-fevralda bo’lib o’tgan voqe – Bangladeshning Dakka shahrida o’z ona tili – Bengal tilini davlat tili darajasiga ko’tarish va uni himoya qilish maqsadida shahar ko’chalariga chiqqan talabalarning politsiya xodimlari tomonidan o’qqa tutilishi bilan bog’liqdir”. [1] Keyinchalik aynan shu sana

2000-yildan buyon xalqaro miqiyosda nishonlanib kelinmoqda. Ona tili kunining xalqaro miqiyosda nishonlanishi ham har birxalqning, millatning o'zining an'analari, milliy tafakkuri hamda ularning ruhiyatining mazmuni, markazi ya'ni o'zagi hamda ularning tiliga bo'lgan muhabbatining aksini ifodalaydi. Ona tili kuni aniq bir kun ya'ni bayram sifatida nishonlanishi bu o'sha xalqning o'z tiliga bo'lgan muhabbatini yanada orttirishg, til haqidagi tushunchalarini kengaytirish va yangilashga, ularning o'z tilini yanada kuchliroq hurmat qilgan holda o'zligini, asl ko'rinish-u mohiyatini yo'qotmasliklariga ulkan hissa qo'shami. Ayniqsa kichik yoshdagilarning tilga bo'lgan muhabbatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tilni mamlakatning qimmatbaho boyligi va mulki desak ham bo'ladi. Agar milliy tilga putur yetsa bu xalq ham parokandalikka yuz tutishi va uning o'zligiga dog' tushishi mumkindir. Tilni sevish millatni, an'analarni hamda qadriyatlarni-yu o'zlikni sevish va qadrlash bilan barobardir. Milliy tilni millat ko'zgusi deyishimiz ham beziz emas. Chunki o'zimizning milliy til orqali millatning necha asrlik ko'xna va boy tarixi, madaniyati, qadriyatlari ham o'zbek tili – ona tilimiz orqali shakllanib bizgacha yetib kelgan. Boshqa ko'plab davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham ko'plab sohalar va yo'nalishlar singari ona tilimizga bo'lgan e'tibor ham tobora kuchaymoqda va uning qadr-qimmati, nufuzi ham ortib bormoqda. "Tarixga nazat tashlasak ham 1989-yil 21-oktabr kuni yurtimizda "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan. O'zbek tili – ona tilimiz davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiriladigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi". [1] Aynan shu kun O'zbek millatining tarixiga zarxal harflar bilan bitildi va bu kun orzulari amalga oshmasdan qolgan va o'z maqsadlariga yeta olmayotgan hamda qorong'u tunda qolgan o'zbek xalqining hayotida huddi chaqmoq chaqishi yoki kun chiqishidek yorug'lik va kelajakka bo'lgan umidlarini va ruhini uyg'otdi hamda o'zbek tilining xalqaro miqiyosdagi obro'si va nufuzini ko'tardi. So'ngra "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyonqilish bilan bir qatorda uni ilmiy rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berdi".[2] Tilga bo'lgan e'tibor va uni rivojlantirish uchun bo'lgan harakatlar faqat hozir emas balki oldindan shakllanib kelgan. Ko'plab olimlar ham til go'zalligini o'rganish va uni yanada jozibali qilish uchun ko'plab ishlar olib borishgan. Jumladan "V. Fon Xumbelt "Til – madaniyat ko'zgusi" degan fikrning asoschisi hisoblanadi. Ushbu fikr davomchilar hisoblangan boshqa olimlardan biri Ter – Minasovning yozishicha: "Til, tafakkur va madaniyat shu qadar zinch bog'langanki, amalda ayni uch unsurdan tarkib topgan yaxlit butunlikni tashkil qiladi, ularning birontasi boshqa ikkisisiz yashay olmaydi". [3]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'z tili bo'lмаган millat, millat deb tan olinmaydi. Tili yo'q bo'lgan xalq esa parokandalikka yuz tutishi mumkin. Har bir xalq o'z ona tilini yaxshi bilishi, uni hurmat qilishi, sevishi, e'zozlashi hamda ardoqlagan holda unga sodiq bo'lishi zarur. Til millatning borligini va uning aksini ifodalab turadi va uni boshqalarga ham tanitadi. Barcha xalq vakillarining vazifasi bo'lsa o'z tilini, urf-odat-u an'analarni, qadriyatlarini saqlab borishi, uni yanada yangilab,yaxshilab brogan holda kelajak avlodga yetkazishi zarur. O'z ona tilimizni sof tutish va himoya qilish, sevish, uni yanada chuqurroq o'rgangan holda olib borish barchamizning burchimizdir. Zero tilimiz bizning xalqimiz yuziga tutilgan ko'zgu kabitdir.

References:

1. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi" rasmiy veb-sayti.

Abdukamol Po'latov-2022.

2. "Til – millat ma'naviyatining muqaddas ko'zgusi". archive.uz sayti.-2020.
3. угли Наркулов, А. К. (2022). Патрулирование-основа обеспечения общественного порядка. Science and Education, 3(11), 1334-1339.
4. АМАНБАЕВ, Ж. (2022). НАРКУЛОВА ИРК Технология организации самостоятельной работы в высших военных образовательных заведениях Республики Узбекистан. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый".-2022, 23, 136-139.
5. "Til – madaniyat ko'zgusi". Rasulova Rayxon-maqola-2024.